

**O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI BOSHQARUV  
(XX ASRNING 50-70 YILLARI)**

**УПРАВЛЕНИЕ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКСКОЙ ССР  
(50-70-Е ГОДЫ XX ВЕКА)**

**MANAGEMENT IN AGRICULTURE OF THE UZBEK SSR  
(50-70S OF THE 20TH CENTURY)**

**Xasanboyeva Gulxayo Ximmat qizi**

*O‘zbekiston tarixi kafedrası katta o‘qituvchisi*

[Gulhayoxasanboyeva29@gmail.com](mailto:Gulhayoxasanboyeva29@gmail.com)

+99891 1102903

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada XX asr 50-70 yillari O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi boshqaruv yoritilgan. Qishloq xo‘jaligi boshqaruvidagi salbiy va ijobiy jihatlari o‘rganilgan. O‘zbekiston Ministrlar Soveti raislari faoliyatlari yoritilgan. Xususan, Nuriddin muhitdinov va Usmon Yusupovlarning qishloq xo‘jaligidagi islohotlari berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Kommunistik partiya, Qishloq xo‘jaligi ministrligi, ipakchilik kombinati, MTS, sanoat, plenum, xalq xo‘jaligi, mineral o‘g‘itlar.*

XX asrning 50-yillari O‘zbekiston SSR boshqaruvida bir qancha o‘zgarishlar vujudga keldi. Ya‘ni, 1953-yil I.Stalinning vafoti yoki hokimiyatning N.Xrushchyov tomonidan qo‘lga olinishi sovet ittifoqi boshqaruvidagi o‘zgarishlarga sabab edi. Kommunistik partiya ta‘sirining kuchayishi davlatlar va ijroiya organlari ustidan partiya nazoratini mustahkamladi. Xususan, O‘zbekiston SSR rahbariyati bu davrda 4 marta almashdi. N.Xrushchyov islohotlarini sanoat va qishloq xo‘jaligini o‘zgartirishdan boshladi. 1953-yil sentabrdagi KPSS MK Plenumida qishloq xo‘jaligini qayta isloh qilish dasturi to‘g‘risidagi fikrlarida bu haqida izohlab o‘tdi. Binobarin, XX asr 50-60 yillarning birinchi yarmida qishloq xo‘jaligini boshqarishda ko‘plab tashkiliy qayta qurishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1957-yildan boshlab tarmoqlarni boshqarishning hududiy prinsip asosida qayta qurilishi yuz berdi. Hamda, xalq xo‘jaligi kengashlari tashkil etildi. Dastlabki paytlarda xalq xo‘jaligi kengashlarining faoliyati muayyan ijobiy samara berdi. Ya‘ni, iqtisodiy rayonlar doirasida ixtisoslashtirish va kooperatsiyalashtirish imkoniyatlari kengaydi. Shuningdek, moddiy texnika ta‘minoti yaxshilandi. Qishloq xo‘jaligida yangicha boshqaruv tizimi shakllandi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligi boshqaruvi Qishloq xo‘jalik ministrligi tomonidan amalga oshiriladi. XX asrning 50-70-yillari qishloq xo‘jaligining barcha sohalarida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan pillachilik sohasi ham bundan mustasno emas edi. Ya‘ni, ittifoqda avtomatik tarzda pillani qayta ishlash 1958-yildan



boshlangan bo'lsa, O'zbekistonda esa birinchi marta Marg'ilon ipakchilik kombinatida yo'lga qo'ydi.

Sovet hukumati 1956-1958 yillar davomida paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish O'zbekiston qishloq xo'jaligining asosiy yo'li ekanligini ko'rsatib berdi. Shu maqsadda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti 1956 yilda "Paxta yetishtirish va uni tayyorlashning moddiy rag'batlantirilishini yanada oshirish choralari to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda topshirilayotgan paxta narxlarini oshirish, ustama mukofotlar to'lashning tartibi, mineral o'g'itlar narxini pasaytirish ko'zda tutilgan edi. Qarorga muvofiq O'zbekistonda paxtachilik sohasidagi boshqaruvi qattiq nazoratga olindi. 1951-yil aprelda O'zbekiston Ministrlar Soveti raisi lavozimiga Nuriddin Muhitdinov tayinlandi. N. Muhitdinov hukumat rahbari sifatida respublikaning xalq xo'jaligi, ijtimoiy va madaniy sohalarini rivojlantirishda katta jonbozlik ko'rsatdi. N. Muhitdinov tashabbusi bilan O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1955-yil 22-dekabrda №816 sonli qaroriga asosan "Samarqand viloyatidagi iqtisodiy kuchsiz hamda tabiiy ofatlar natijasida zarar ko'rgan kolxozlarga yordam ko'rsatish to'g'risida" qaror qabul qilinadi.[7;117]. Qarorga ko'ra kolxozlarning 1955-yildagi qarzdorligi o'chiriladi. 1953-1954 yillarga kelganda Usmon Yusupov O'zbekiston Ministrlar Soveti raisi lavozimida ishlaydi. U faoliyati davomida qishloq xo'jaligidagi kadrlar masalasiga katta e'tibor qaratdi. Chunki bu paytda 2576 kolxoz raisidan atigi 54 kishi oliy ma'lumotga ega edi xolos. Markaziy idoralarda samarali ishlay oladigan yetuk, tajribali, mahalliy kadrlar ko'plab topilgan. KPSS Markaziy Komiteti, SSSR Oliy Soveti, Ministrlar Soveti apparatida va boshqa idoralarda yuqori lavozimlarda ishlagan mahalliy millat vakillardan Fayzulla Xo'jayev, Usmon Yusupov, Abdulla Rahimboyev, Nazir To'raqulov, Sulton Segizboyev, sa'dulla Tursunxo'jayev, Sotqin Badalboyev kabi ko'plab atoqli davlat arboblari mamlakat ravnaqi, kelajagi uchun mehnat qildilar, biroq hukmron tuzum qurbonlariga aylandilar[3;66].

Shuningdek, aksariyat yangi kolxoz va sovxoz posyolkalarida ichimlik suvi, kanalizatsiya markaziy isitish tizimi umuman bo'lmagan. Respublika bo'yicha 1970-1980 yillar oxirida qishloq aholisi punktlaridan 80% dan ortiqrog'i vodoprovod suvidan mahrum edi va faqat tashib keltiriladigan suvdan foydalanar edi. Qishloqlarda oqava suvlarni tozalash inshootlari quvvatidan 40% dan kamroq foydalanilgan. Bu hol tozalanmagan suvlar, maishiy chiqindilarning asosiy qismi ochiq havzalarga, yer osti chuqurlariga yoki yer ustiga tashlanishiga olib kelar edi. Shu sababdan VKP(b) MK va SSSR Ministrlar Soveti tomonidan 1950 yil 30 mayda "Mayda kolxozlarni yiriklashtirish va partiya tashkilotlarining bu sohadagi vazifalari" qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida O'zbekiston SSRda ushbu yilning avgust oyiga qadar 1770 ta kolxoz qayta qurilib, ular asosida 752 ta yirik kolxozlar tashkil qilindi. Natijada, kolxozlar soni qariyb ikki martadan ko'proqqa qisqartirilgan, bu esa o'z navbatida, ma'muriy boshqaruv apparatini 6582 ta shtatga qisqartirish imkoniyatini yaratgan.[4;87].

Shunday bo'lsada, Sovet rahbariyati tomonidan 1950 yillarning ikkinchi yarmida qishloq xo'jaligini boshqarishda bir qator ziddiyatli qarorlar qabul qilingan. Bu kabi qarorlardan biri





bu MTSlarni qayta tashkil qilish va ularga tegishli bo'lgan qishloq xo'jalik texnikasini berish bilan bog'liq edi. Ushbu qaror bir tomondan asosli edi, lekin boshqa jihatdan ulardan olingan texnika kolxozlarga tekin berilmagan, balki ular sotib olishi shart bo'lgan, natijada ko'plab kolxozlarning iqtisodiy ahvoliga putur yetgan. Ikkinchi tomondan esa ko'p kolxozlar texnikani shu zahoti sotib olish uchun mablag'i bo'lmaganligi sababli, mavjud qarzlarni yillar davomida to'lab borgan, bu esa kolxozchilarning noroziligiga sabab bo'lgan.

Shuningdek, ushbu qarorning yana bir salbiy jihatlaridan biri bu MTSlarda faoliyat yuritgan malakali mexanizator va mexanik kadrlarni yo'qotish bilan bog'liq edi. Qonun bo'yicha ular kolxozlarga o'tishlari kerak bo'lgan, bu esa ularning ko'plari uchun hayot darajasining pasayishiga olib kelar edi. Shuning uchun ular o'zlariga rayon markazlari va shaharlarda ish topishgan. Natijada texnikaga bo'lgan munosabat yomonlashgan, chunki kolxozlarda texnika saqlanadigan yopiq parklar bo'lmaganligi sababli texnika qarovsiz bo'lib, tezda ishdan chiqqan. Buning ustiga kolxozchilarning texnik madaniyati ham past bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, kommunistik mafkura bilan boshqarilgan qishloq xo'jaligi barcha sohalar rivojini yetarlicha qamrab olmadi. Respublika rahbarlari ham boshqaruvda markazga bo'ysunishga majbur bo'lishi tub aholi manfaatlarini suiste'mol bo'lishiga olib kelar edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: Extremum Press. – 2011.
2. Ismailov D. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati. Journal of science innovative research in Uzbekistan. Vol.1, Issue1, 2023. – 80-82 bet.
3. Iymanova D. O'zbekistonni mahalliy kadrlar bilan ta'minlashdagi sovetlar siyosatining oqibatlari(XX asrning 1945-1990yillari)// Ilmiy xabarnoma ADU №3, 2012. – 63-66 betlar.
4. Madaminov U. O'zbekiston II jahon urushidan keyingi qishloq xo'jaligi rivojlanishining xususiyatlari.// Ilm-fan va innovatsiya ilmiy -amaliy konferensiyasi.–87-92 betlar.
5. Muminov N., Abdirayimov A. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. Academic Research in educational sciences. Vol.4, Issue 1, 2022. – 167-172 bet.
6. Nurmatov N.J, Ro'ziyev O.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: Tafakkur, 2011.
7. Rashidov Sh. O'zbekiston SSR boshqaruvi tarixi. – T.: Fan, 2023. – 117 bet.
- Yo'ldoshev M. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishchi kuchidan ratsional foydalanish. – T.: O'zbekiston, 1982.
8. Shaumarov X.B, Islamov S. Y. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsiya Ziyoy, 2020.
9. w.w.w.lex.uz
10. w.w.w.gazeta.uz

